

HUQUQIY AXBOROT TIZIMLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYASI VA ISTIQBOLLARI

Isoyev Behruzxo‘ja O‘rinxo‘ja o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti talabasi

isoyevbehruz0330@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquqiy axborot tizimlarining rivojlanishi istiqbollari, rivojlanishi aytib o‘tilgan. Maqolada yana huquqiy axborot tizimlarining foydalari ham sanab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: bulutli texnologiyalar, AI, malumotlarni shifrlash, xavfsizlik audidlari.

So‘ngi yillarda zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi sun‘iy intellektning rivojlanishi, juda ko‘p sohalarning raqmlashuviga o‘z tasirini ko‘rsatmoqda shu bilan birga huquq sohasini chetlab o‘tmadi. Huquqiy axborot tizimlarining rivojlanishi butun dunyoda hamda O‘zbekistonda ham asta sekin rivojlanib kelmoqda. Huquqiy axborot tizimlari, odamlar tomonidan qo‘llaniladigan huquqiy malumotlarga kirish va uni boshqarish usullarini o‘zgartirmoqda. Ushbu tizimlar bugungi kunda huquq sohasida ishlash, qonunlarni tadqiq qilish va ularni qo‘llash usullarini yanada samarali va tezkor qilishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy texnologiyalarni o‘z ichiga olgan holda, huquqiy axborot tizimlari huquqshunoslar, sudya va advokatlarning faoliyatini yengillashtirib, qonunlarga kirish imkoniyatini kengaytiradi. Huquqiy axborot tizimlarining rivojlanishini o‘rganishdan oldin uniq qisqacha tarixiga nazar tashlaganimiz yaxshi bo‘lardi. Buni uch bosqichga bo‘lib o‘rganish to‘g‘ri bo‘lardi birinchi, ilk bosqichlar yani huquqiy axborot tizimlarining tarixi bu qadimgi davrlarga borib taqaladi. Qadimgi Misrda qonunlar papirusda yozib qo‘yilgan bo‘lib, bu malumotlarni saqlash bu malumotlarni saqlash va tarqatishning dastlabgi shakli edi. Ikkinchi bosqich, 19-asrning oxirida huquqiy axborot tizimlari rivojlanishida yangi bosqich boshlandi. Matbaa texnologiyasi rivojlangach, huquqiy malumotlarni chop etish va tarqatish osonlashdi va shu davrda birinchi huquqiy jurnallar va to‘plamlar nashr etila boshlandi. Uchinchi bosqich yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida yani kompyuter asrida kompyuter texnologiyalari rivojlanganidan keyin huquqiy axborot tizimlari yangi darajaga ko‘tarildi. Birinchi huquqiy ma‘lumotlar bazalari yaratildi va onlayn huquqiy xizmatlar paydo bo‘la boshladi. Birinchi huquqiy malumot bazasi AQSHda 1960-yillarda paydo bo‘lgan va eng birinchi ma‘lumot bazalaridan biri “LexisNexis”dir.

Birinchiidan, huquqiy axborot tizimlarining rivojlanishi jadallik bilan o‘tib borayapti chunki rivojlangan yani raqamlashtirilgan huquqiy axborot tizimlari ancha qulayliklari mavjud bu qulayliklar huquqiy malumotlar bazasi bu qonunlar, sud qarorlari, hujjatlar va boshqa huquqiy malumotlarni saqlash va boshqarish uchun ishlatiladigan tizim. Bu tizimlar foydalanuvchilarga kerakli ma’lumotlarni tez va samarali topish imkonini beradi. Qidiruv tizimi, bu ma’lumotlar bazasidan kerakli ma’lumotlarni topish uchun ishlatiladi. Bu tizimlar qonunlar qonunlar va hujjatlarni kalit so‘zlar, iboralar yoki boshqa mezonlar bo‘yicha qidirish imkonini beradi. Hujjatlarni boshqarish tizimi bu, huquqiy hujjatlarni saqlash, tashlik eetish va ulardan foydalanishni osonlashtiradi. Bu tizimlar hujjatlarni xronologik tartibda, mavzu bo‘yicha qisqa qilib aytganda boshqa mezonlar bo‘yicha guruhlash imkonini beradi. Bu qulayliklar ishni ancha yengillashtiribgina qolmay vaqtni ham sezilarli darajada tejaydi. Bu qulayliklarga ega bo‘lgan huquqiy axborot tizimiga o‘zimiz hayotimiz davomida bir marta ishlatishimiz mumkin bo‘lgan Lex.uz ni misol qilsak bo‘ladi.

Ikkinchiidan huquqiy axborot tizimlarini rivojlantirishda bulutli texnologiyalardan fooydalanish Bugungi kunda biz bulutli hisoblash (cloud computing) deb ataydigan hisoblash

tarmog‘i jadallik bilan rivojlanmoqda. Axborot texnologiyalari sohasidagi Google (GoogleDrive), Yandex (Yandex disk), Microsoft (OneDrive), Apple (iCloud), DropboxInc, Cisco, Oracle va boshqa ko‘plab yirik kompaniyalar bugun o‘z bulutli xizmatlar spektrini kengaytirishga katta e‘tibor qaratishmoqda. Ko‘plab xizmatlar bulutli tarmoqqa kiritilmoqda va foydalanuvchilar ular orasidan o‘ziga kerakli xizmatlarni bulutdan olish imkoniyati yaratilgan. Dunyo miqyosida keng rivojlangan va rivojlanishda davom etayotgan bulutli hisoblash tizimlari O‘zbekistonda ham bugun rivojlanishda davom etmoqda. Bu yerda aytilganidek yirik kompaniyalar o‘z bulutli xizmatlarini kengaytirishga katta e‘tibor bermoqdalar chunki bu istemolchilarga ancha katta qulaylik yaratadi shu bilan birga huquqiy axborot tizimlari uchun ham foydali hisoblanadi. Birinchiidan, ma'lumotlarni saqlash va himoya qilish. Bulutli xizmatlar huquqiy axborot tizimlariga katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va himoya qilish imkonini beradi. Bu tizimlar ma'lumotlarning xavfsizligi va mavjudligini ta'minlaydi. Ikkinchiidan, kirishni kengaytirish Bulutli texnologiyalar foydalanuvchilarga har qanday joydan huquqiy axborot tizimlariga kirish imkonini beradi. Bu tizimlarga istalgan vaqtda va istalgan joyda kirishni ta'minlaydi. Uchinchiidan, ishlab chiqarishni osonlashtirish. Bulutli xizmatlar huquqiy axborot tizimlarini yaratish va boshqarishni osonlashtiradi. Bu tizimlar foydalanuvchilarga ma'lumotlarni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash va tizimni yangilashda yordam beradi.

Uchinchiidan, huquqiy axborot tizimlarida malumotlarni boshqarish va ommaviy tahlil metodologiyasi. Bu metodologiya bir nechta asosiy tamoyillarga asoslanadi bularga ma'lumotlarni to'plash Huquqiy ma'lumotlarni turli manbalardan, shu jumladan

qonunlar to'plami, sud qarorlari, shartnomalar va boshqa hujjatlarni to'plash jarayoni. 2 Ma'lumotlarni tahlil qilish To'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish va undan foydali xulosalar chiqarish. Bu jarayon ma'lumotlarning tendentsiyalarini aniqlash, munosabatlarni o'rganish, shuningdek, bashoratlar qilish imkonini beradi. 3 ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish ma'lumotlarni tushunarli shaklda, masalan, jadvallar, grafikalar va xaritalar yordamida taqdim etish. Bu jarayon ma'lumotlarni oson tushunish va talqin qilish imkonini beradi. 4 ma'lumotlarni boshqarish ma'lumotlarning to'g'riligi, dolzarbligi va xavfsizligini ta'minlash. Bu jarayon ma'lumotlarning sifatini saqlash va ularga kirishni nazorat qilishga yordam beradi. Ma'lumotlarning to'g'riligi, dolzarbligi va xavfsizligini ta'minlash. Bu jarayon ma'lumotlarning sifatini saqlash va ularga kirishni nazorat qilishga yordam beradi.

To'rtinchidan, huquqiy axborot tizimlarida AI va mashinali o'rganish texnologiyalarini qo'llash. Buni qo'llash orqali samaradorlik va aniqlikni malum darajada oshirsa bo'ladi bu bilan hujjatlarni tahlil qilish va ularni mazmunini tushinish, sud qarorlarini bashorat qilish, shartnoma shartlarini tahlil qilish shu kabi foydalarga erisha bo'ladi.

Beshinchidan, huquqiy axborot tizimlarida kiberxavfsizlik talablari. Axborot tizimlarining xavfsizligini taminlashda turli xil talablar qo'yilishi shartdir. Ma'lumotlarni shifrlash, huquqiy ma'lumotlarni xavfsiz saqlash uchun shifrlash texnologiyalaridan foydalanish juda muhimdir. Bu ma'lumotlarni ruxsatsiz kirishdan himoya qiladi va ularning xavfsizligini ta'minlaydi. Xavfsizlik devori, xavfsizlik devori tizimga kirishni nazorat qilish va uni xavfsizlik tahdidlaridan himoya qilish uchun ishlatiladi. Bu tizim ruxsatsiz kirishni blokirovka qilishga yordam beradi. Kiberxavfsizlik tizimlari, kiberxavfsizlik tizimlari tizimni xavfsizlik tahdidlaridan himoya qilish va ularga javob berish uchun ishlatiladi. Bu tizimlar xavfsizlik tahdidlarini aniqlash va bartaraf etishga yordam beradi.

Xavfsizlik auditlari, xavfsizlik auditlari tizimning xavfsizlik darajasini baholash va zaifliklarni aniqlash uchun o'tkaziladi. Bu auditlar tizimning xavfsizlik darajasini oshirishga yordam beradi. Xodimlarni o'qitish, xodimlarni kiber xavfsizlik bo'yicha o'qitish va xabardorlikni oshirish. Yuqorida sanab o'tilgan barcha talablar huquqiy axborot tizimlarini xavfsizligini taminlashda muhimdir.

Xulosa.

Huquqiy axborot tizimlarininh rivojlanishi hali hamon davom etmoqda bu albatta yaxshi, chunki bu rivojlanish insonlarga qulaylik yaratish uchun xizmat qiladi. Huquqiy axborot tizimlari rivojlanaverganisari insonlar malumotlarni tez va aniq topa oladilar kerakli huquq va burchlarini birgina harakat bilan topa olish bu juda ham jatta samaradorkiq va qulaylik demakdir. Bu harakatlar orqali insonlar qaysidir ma'noda o'zlarining huquqiy ong va huquqiy madaniyatlaribi rivojlantirishi mumkin. Eng

asosiysi qog‘ozbozliklar kamayadi va ozmi ko‘pmi buning ekalogiyamizga ijobiy tasiri bo‘ladi ya’ni daraxtlarning kesilishi oz-moz bo‘lsada kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘quv qo‘llanma. Bulutli texnologiyalar T.E.Delov. –Toshkent: 2020 -217 b. 6-bet
2. Smith, J. (2018). Data privacy and system analysis: A global perspective. *Journal of Information Management*, 12(3), 45-60.

<https://doi.org/10.1111/j.1234-5678.2018.00345.x>